

2. Роук В.Д. Пенсионное страхование и обеспечение: учебное пособие для вузов / 3-е изд., испр. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2020. – 478 с.
3. Tetlow G. Essays on the economics of retirement and pensions. A dissertation submitted in partial fulfilment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy of University College London. – England: Department of Economics University College London. 2015. – 224 p.
4. Орлов С.Н., Шеметов А.П. Пенсионное обеспечение в Российской Федерации. Монография. – Курган: "Изд-во Курганского гос. ун-та", 2013. – 106 с.
5. Ражабов Ш.У. "Пенсия тизимидағы тарқибий ўзгаришларнинг асосий үйналишлари" мавзусида Иқтисодиёт фанлари доктори (Doctor of Science) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021 йил. 71 бет.
6. Зиядуллаев М.Д. "Ўзбекистонда ёшга доир пенсия тизими ва унинг ҳуқуқий асосларини тақомиллаштириши" мавзусида юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019 йил. 32 бет.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 2018 йил 12 декабрдаги "Фуқароларнинг пенсия таъминоти тизими самарадорлигини ошириш ва пенсионерларни ижтимоий қўйлаб-куватлашини кучайтиришига оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" 5597-сон фармони.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 2022 йил 29 апрелдаги "Ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли қатламларини моддий қўйлаб-куватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ПФ-128-сон фармони.
9. Ўзбекистон Республикаси "Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида"ги қонунига ўз гартириш киритиши тўғрисида.
10. World Population Prospects-2022. World Population Prospects - Population Division - United Nations
11. Социальные показатели в странах СНГ, Грузии и Балтии за 1992 и 2021 годы. Международная ассоциация Пенсионных и социальных фондов. – Москва, 2022.
12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 13 октябрдаги "Давлат пенсияларини тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида" ВМҚ-592-сон қарори.
13. www.apzf.ru – Халқаро пенсия ва ижтимоий жамғармалар ассоциацияси (Международная ассоциация Пенсионных и социальных фондов) маълумотлари.
14. Халқаро меҳнат ташкилоти (Международной организации труда)нинг 1952 йил 4 июнданги "Ижтимоий таъминотнинг минимал меъёrlари тўғрисида" 102-сонли конвенцияси.
15. Давронов Ш.З. "Ўзбекистон Республикасида ижтимоий сугурта тизимини ташкил этишининг методологик асосларини тақомиллаштириши" мавзусида Иқтисодиёт фанлари доктори (Doctor of Science) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022 йил. 72 бет.



TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LIZING MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH

Davlyatova Gulnora Muxammadjanovna -
Farg'onan politexnika instituti,
Iqtisodiyot kafedrasи dotsenti

https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss6/a40

Annotatsiya: Hozirgi davrda to'qimachilik korxonalarining asosiy vazifalaridan biri yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish hisoblanadi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy va ilg'or texnika hamda texnologiyalarni kiritish masalasini obyektiv zarurat sifatida maydonga chiqaradi. Ushbu maqsadda yangi asosiy fondlar uchun investitsiyalar jalg qilinadi. Moliyaviy mablag'larni, investitsiyalarni an'anaviy manbalar bilan kiritishning yetarli emasligi sababli ushbu muammo yanada chuqurlashmoqda. Buning natijasida moliyalashtirishning yangi shakllarini joriy etish asosida uzoq muddatli investitsiyalarni jalg qilish ehtiyoji paydo bo'lmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar, jahon amaliyotida keng qo'llanib kelayotgan lizingni to'qimachilik korxonalarida investitsiya jarayonlarini faollashtirishga ta'sir qiluvchi eng muhim vositalardan biri ekanligini ko'rsatdi. Fan va texnika jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda lizing tufayli korxonalar mashina va jihozlarni tez hamda investitsion xayf-xatarning minimal darajasi bilan almashadirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kalit so'zlar: lizing, lizing funktsiyalari, lizingni ijtimoiy va siyosiy ahamiyati, amortizatsiya, tezlashgan amortizatsiya, moliyaviy lizing, operativ lizing, revolver lizing.

РАЗВИТИЕ ЛИЗИНГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Давлятова Гулнора Мухаммаджановна -
Ферганский политехнический институт,
доцент кафедры "Экономика"

Аннотация. В настоящее время одной из основных задач текстильных предприятий является производство продукции с высокой добавленной стоимостью. Это ставит вопрос о внедрении в производственные процессы современной и передовой техники и технологий как объективную необходимость. С этой целью будут привлечены инвестиции в новые основные средства. Эта проблема углубляется из-за недостаточного поступления финансовых средств, инвестиций с традиционными источниками. В результате этого возникает необходимость привлечения долгосрочных инвестиций на основе внедрения новых форм финансирования. Исследования показали, что лизинг, получивший широкое применение в мировой практике, является одним из важнейших инструментов, влияющих на активизацию инвестиционных процессов на текстильных предприятиях. В нынешних условиях, когда наука и техника стремительно развиваются, благодаря лизингу предприятия получают возможность быстро и с минимальным уровнем инвестиционного риска заменить машины и оборудование.

Ключевые слова: лизинг, функции лизинга, социально-политическое значение лизинга, амортизация, ускоренная амортизация, финансовый лизинг, операционный лизинг, револьверный лизинг.

DEVELOPMENT OF LEASING RELATIONS AT TEXTILE ENTERPRISES

Gulnora Muhammadjanovna Davlyatova -

Fergana polytechnic institute, docent of "Economics"

Annotation. Nowadays one of the main tasks of textile enterprises is the production of products with high added value. This, in its turn, raises the question of the introduction of modern and advanced equipment and technologies into production processes as an objective necessity. For this purpose, investments in new fixed assets will be attracted. This problem is deepening due to insufficient financial resources and investments from traditional sources. As a result, there is a need to attract long-term investments based on the introduction of new forms of financing. The conducted research has shown that leasing, which has been widely used in world practice, is one of the most important tools influencing the activation of investment processes in textile enterprises. In the current conditions, when science and technology are developing rapidly, due to the leasing, enterprises are able to replace machinery and equipment quickly and with a minimum level of investment risk.

Keywords: leasing, leasing functions, social and political significance of leasing, depreciation, accelerated depreciation, financial leasing, operational leasing, revolver leasing.

Kirish. Iqtisodiyotda kundan kunga shakllanib borayotgan sof raqobat muhitishi lab chiqarish korxonalarini modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish kabi chora tadbirlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Xar bir xo'jalik yurituvchi sub'ektlar oldida mazkur tadbirlarni amalga oshirish uchun zaruriy mablag'lар manbaini topish muammosi paydo bo'ladi. Bu muammoning yechimini topish bir tomondan korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasini o'sishga, ya'ni uning eksport salohiyatini ortishi, yangi ish o'rinalini yaratilishi, inflyatsiya darajasini pasayishi, milliy valyuta qadrni mustahkamlanishi kabilarga olib keladi.

Moliyaviy manbalarni aniqlashtirishning eng maqbul variantlaridan biri bu lizing munosabatlarni rivojlantirishdir. Bu esa o'z navbatida lizing xizmatlariga bo'lgan talabni keltirib chiqaradi. Ushbu holat yangi lizing kompaniyalarining va asosiy faoliyatini lizing bilan shug'ullanish bo'lмаган tashkilotlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Yangi lizing kompaniyalarining paydo bo'lishi ular orasida raqobat muhitining oshishiga va shu orqali ko'rsatiladigan lizing xizmatlari darajasining yaxshilanishiga olib keladi.

Hozirga kunda lizing xizmatlari bozorining eng katta ulushini tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan lizing operatsiyalari tashkil etmoqda. Vaholanki, lizing operatsiyalari tijorat banklarining asosiy faoliyatini tashkil etmasada, ular uzoq muddatli moliyalashtirishga bo'lgan talabni qondirish bilan bog'liq masalalarni hal qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Lizing munosabatlari ko'plab olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Rossiyalik iqtisodchi olim V.D.Gazmanning ilmiy-tadqiqot ishlarida lizingning rivojlanish xususiyatlari o'rganilib, lizing tadbirkorlik faoliyatini kreditlash uslubi, shuningdek, "lizing-banklarning kredit-moliya siyosatining elementi" sifatida ta'riflanadi[4]. Iqtisodchi olim M.I. Leshenko tomonidan lizingni nazariy asoslari o'rganilib, u uzoq muddatli ijaraga tenglashtiriladi. Lizingga ijara

shakli sifatida ta'rif beriladi. "Lizing – moliyaviy munosabatlari shakllaridan biri bo'lib, korxonalar tomonidan mashina, asbob-uskuna va shunga o'xshashlarni uzoq muddatli ijaraga olinishini anglatadi"[6] yoki iqtisodchi olim N.M.Vasilev tomonidan "lizing ijara munosabatlarining alohida shakli"[3] ta'rifining berilishi, шунингдек, E.N.Chekmareva ham lizingni moliyaviy instrumentning bir ko'rinishi, xususan "lizingni kreditlashning bir shakli" sifatida ko'rib chiqilishi[11] kabilar. Ammo ularning ilmiy-tadqiqot ishlarida lizingni asosiy funktsiyalari hamda lizingni ijara va kredit o'tasidagi farq qiluvchi jihatlar to'liq ochib berilmagan.

O'zbekistonda esa iqtisodchi olimlardan D.G'.G'ozibekov, O.Sh.Sobirov va boshqalar o'z ilmiy ishlarini mamlakatimizda lizingni rivojlantirishning nazariy va amaliy jixatlari bilan bog'liq masalalarni o'rganishga bag'ishlaganlar[5]. F.O.Abdullaev[9], Z.B.Mustafayevning[10] ilmiy-tadqiqot ishlarida ham lizing operatsiyalarini amalga oshirishning afzalliklari masalalari o'rganilgan.

Shunday bo'lishiga qaramasdan mamlakatimiz olimlari ilmiy ishlarida, sanoat korxonalarida ayniqsa, to'qimachilik korxonalarida lizingni shakllantirish va undan foydalanishni tashkil qilish jihatlarini o'rganishga yetarli e'tibor berilmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mantiqiy fikr lash, induktsiya va deduktsiya, mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan bo'lib, nazariy va metodologik asosini tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-metodologik adabiyotlar tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida va xizmat ko'rsatishda foydalanish maqsadida lizing asosida jalb qilinayotgan jihoz turlarining kelgusidagi diversifikatsiyasi o'z-o'zidan iqtisodiyotni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda yuk tashish va yo'lovchi avtovansport hamda yengil sanoat uchun mo'ljallangan jihozlarni lizingga berish hajmining ko'payishi kuzatilmoqda.

Lizingning tub mohiyati mulkiy huquq, kapital, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi kabi ishlab chiqarish munosabatlarini uyg'unlashtirishga

qaratilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu bilan birga mulkdordan mulkiy huquq bosqichma-bosqich undan foydalanuvchiga o'tib borishi yoki mavjud faoliyat davrida mulk sub'ekti o'zgarishi lizing munosabatlarining o'ziga xosligidan dalolat beradi. Ya'ni lizing munosabatlari jarayonida lizing oluvchi o'z mablag'i va mehnatini asosiy fondlarning sifat va son jihatidan yaxshilanishiga qaratishi oqibatida foydalanuvchidan egalik qiluvchiga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi. U o'z navbatida, tadbirkor – mehnatkash – mulkdor sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat investitsion qo'yilmalari, kredit resurslari va xorijiy investitsiyalar u yoki bu faoliyat sohasi, mulkchilik shaklini ustun sanab, imtiyozli shartlar joriy qilishni ko'zda tutsa, lizing munosabatlari uchun esa ularning barchasi bir xil mavqega ega. Umuman olganda, lizingning iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati mulkiy munosabat, hamkorlikdagi iqtisodiy faoliyat va mulkiy huquq o'zgarishining hayotda o'z ifodasini topishi bilan baholanadi, deyish mumkin. Bu lizingni ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim funksiyani bajarishidan dalolatdir. Lizingni asosan moliyaviy va ishlab chiqarish funksiyalari eng ahamiyatli hisoblanadi.

Moliyaviy funksiya tovar ishlab chiqaruvchi (xizmat ko'rsatuvchi) xo'jalik sub'ektini mulk qiyomatining avvaldan to'liq to'lab olinishi bilan bog'liq noqulaylikdan ozod qilinishida aks etadi. Buni uzoq muddatli kreditga qiyoslashadi, ammo u kreditdan past foizga ega ekanligi bilan ahamiyatliroqdir.

Lizingning ishlab chiqarish funksiyasi qimmat va fan texnikasi jadal rivojlanib borayotgan bir sharoitda tez fursatlarda ma'naviy eskirishi mumkin bo'lgan asbob-uskunalar sotib olish hisobiga emas, balki nisbatan qisqa muddatda vaqtinchalik foydalanish sharti asosida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda namoyon bo'ladi. Bu ishlab chiqarishni texnik jihatdan qurollantirishning samarali usuli bo'lish bilan birga, fan-texnikaning oxirgi yutuqlaridan manfaatdor bo'lishini ta'minlaydi. SHU bilan birga lizing oluvchi ishlab chiqaruvchi yoki lizing beruvchi tomonidan texnik xizmat ko'rsatish, sug'urta qilish, xom ashyo bilan ta'minlash, ishchi kuchi malakasini oshirish kabi qator xizmatlardan ham foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Lizing asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozorlar ochish imkoniyatini beradi. Agarda bugungi kunda fan-texnika oxirgi yutuqlari asosida tayyorlangan mashina va uskunalar ancha qimmat hisoblanib, ularning asosan rivojlanayotgan, rivojlanish darajasi past bo'lgan (yoki sotib olish imkoniyati cheklangan) hududlar ishlab chiqarishi uchun talab qilinishini e'tiborga oladigan bo'lsak, lizing faoliyati imkoniyatlarini yuqori baholash mumkin. Lizingning funksiyalaridan tashqari uning ijtimoiy va siyosiy ahamiyatini ham ta'kidlash zarurdir.

Ijtimoiy ahamiyati davlat mulki xususiyashayotgan bir sharoitda uning ma'lum qismiga egalik

qilish, modernizatsiyalash va qayta jihozlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi talabga nisbatan bir necha bor ortib ketgan sharoitda uning tartiblanishiga ko'maklashish, import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Siyosiy ahamiyati esa o'rta mulkdorlar qatlami shakllanishi, moddiy ta'minot yaxshilanishi natijasida amalga oshirilayotgan islohotlardan mamnuniyat hissingin paydo bo'lishi bilan bog'liqidir.

Yuqorida bayon qilingan fikrlarni e'tiborga olib shuni aytish joizki, lizing ijara, bank, tijorat faoliyatlariga nisbatan yuqori darajadagi tadbirkorlik faoliyati bo'lib hisoblanadi, chunki u yuqorida sanab o'tilgan faoliyat turlariga tegishli xususiyatlarni bir vaqtning o'zida namoyon etishi mumkin. Demak, lizing o'zida ijara va kredit tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarini jamlagan investitsion faoliyat turidir. Lizingning iqtisodiy ahamiyati beqiyos bo'lib, u ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni amalga oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi, mamlakatda investitsion jarayonlarni jadallashuviga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida va xizmat ko'rsatishda foydalanish maqsadida lizing asosida jalb qilinayotgan jihoz turlarining kelgusidagi diversifikatsiyasi o'z-o'zidan iqtisodiyotni rivojlantirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Lizing xizmatlarining umumiy hajmida qishloq xo'jalik texnikasi xarid qilishdagi xizmatlar ulushining asta-sekinlik bilan kamayib borishi ushbu fikrni isbotlamoqda. Bugungi kunda yuk tashish va yo'lovchi avtotransport hamda to'qimachilik sanoati uchun mo'ljallangan jihozlarni lizingga berish hajmining ko'payishi kuzatilmoqda.

O'zbekiston to'qimachilik korxonalari asosiy fondlarini yangilash maqsadida lizing mexanizmidan foydalanish masalalarini ko'rib chiqishda to'qimachilik jihozlari hususiyatlaridan kelib chiqadigan investitsion mexanizmlarni hisobga olish lozim [8].

Birinchidan, to'qimachilik jihozlari uzoq muddatda amortizatsiyalanib, ularning foydali ishslash muddati o'rtacha 5-7 yilgacha bo'lgan vaqtini qamrab oladi. Shuning uchun lizing shartnomasini muddati ham ana shunga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

Lizing munosabatlarida lizingga olingan jihozlarga nisbatan amortizatsiya hisoblashning tezlash-tirilgan usulini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Amortizatsiyalanuvchi lizingga olingan asosiy vositalarga tezlashtirilgan usulning kamayib boruvchi qoldiq shaklini 3 dan katta bo'limgan koeffitsientni qo'llash orqali amalga oshirish mumkin. Bizning fikrimizcha, lizing kelishuvlarida tezlashgan amortizatsiya koeffitsienti 2- 3 koeffitsientni tashkil etishi lozim. Ushbu koeffitsientni to'qimachilik jihozlarining eng kichik foydali ishslash muddati – 85 oyga

qo'llanilsa, 3,5 yil davomida soliqqa tortish bazasini kamaytirish imkoniyati tug'iladi. SHunga mos ravishda foydali ishslash vaqtি ko'proq bo'lgan jihozlarning lizing muddati ham yuqiroq bo'ladi. Tezlashtirilgan amortizatsiya koeffitsientlari 2 yoki

3 koeffitsientga teng qilib belgilanganda erishilishi mumkin bo'lgan amortizatsiya samarasini loyiha-lashtirilayotgan umumiy lizing miqdori 7557,4 mln. so'mni tashkil etuvchi korxona misolida ko'rish mumkin (jadval).

Jadval

Tezlashtirilgan amortizatsiyani 2 va 3 koeffitsientlarda hisoblashning solishtirma jadvali

Yillar	Kamayib boruvchi qoldiq 2 koef.			Kamayib boruvchi qoldiq 3 koef.		
	Boshlang'ich qiymati, mln. so'm	Amortizatsiya, mln. so'm	%	Boshlang'ich qiymati, mln. so'm	Amortizatsiya, mln. so'm	%
1	7557,4	3022,9	40	7557,4	4534,4	60
2	4534,4	1813,8	40	3022,9	1813,8	60
3	2720,7	1088,3	40	1209,2	755,5	60
4	1632,4	652,9	40	483,7	290,2	60
5	979,4	391,8	40	193,5	116,1	60

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Hisoblar obyekti sifatida lizing bo'yicha sotib olingan 7557,4 mln. so'mlik asosiy vositalar qiymati qabul qilinadi. Lizing kelishivi muddati 5 yilni tashkil etadi. Tezlashtirilgan amortizatsiyani kamayib boruvchi qoldiq usulida 2 koeffitsientni o'rniga 3 koeffitsienti qo'llanilishi natijasida amortizatsiya samarasi 275,7 mln. so'mni tashkil etadi. Dastlabki davrda soliqqa tortiladigan baza kamaytiriladi, lekin mulk qiymatining kamayib borishi bilan amortizatsiya summasining kamayishi hisobiga xarajatlar kamayib soliqqa tortiladigan baza oshadi. Shu bilan birga tezlashtirilgan amortizatsiyani qo'llash lizing xarajatlarini qisqa muddatda qoplash imkonini beradi. Lizingga olingan jihozlar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish muammosi tug'ilmas ekan, amortizatsiya xarajatlarini ko'paytirish mumkin. Bunda soliqqa tortish bazasini kamaytirmaslik sotish bahosini oshirish orqali amalga oshiriladi.

To'qimachilik jihozlarining lizing uchun ahamiyatli bo'lgan ikkinchi hususiyati bo'lib, ularning yuqori texnologik darajasi hamda shunga mos holda yuqori qiymatga ega ekanligi hisoblanadi. Rossiyada ishlab chiqarilgan yigiruv jihozlarining o'rtacha qiymati bir mashina uchun 24-32 ming AQSH dollarini, boshqa xorijiy davlatlardan keltiriladigan yigiruv jihozlar narxi esa 60-80 ming AQSH dollarini tashkil etadi [7; 8].

Bitta yigiruv tsexining raqobatbardoshlik daramasida uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun esa 10 ta mashinadan iborat zanjir, bundan tashqari, qo'shimcha jihozlar ham kerak bo'ladi. Natijada jihozlarni lizing asosida sotib olish bo'yicha kelishuv hajmi 1 mln. dollardan 10 mln. dollargacha bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan hususiyatlar albatta, to'qimachilik sanoatidagi lizing hajmiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki ular lizing kelishuvlariga bo'lgan lizing muddati, kelishuv qiymati, kafolatli ta'minot bo'yicha alohida talablarni shakllantiradi.

To'qimachilik korxonalarida lizing mexanizmidan samarali foydalanish uchun tarmoq jihozlari xususiyatlarini hamda korxonalar moliyaviy imko-

niyatlarini hisobga olgan holda lizing turlarini tanlashga tabaqlashgan yondoshuv talab etiladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan lizing turlari ichida to'qimachilik korxonalari uchun mos keladigani moliyaviy lizing hisoblanadi. Ushbu holatni quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin:

- moliyaviy lizingni qo'llash lizing kompaniyasidan lizing predmetiga xizmat qilish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni talab etmaydi;

- moliyaviy lizing shartlari to'qimachilik korxonalari uchun qulay va maqbul hisoblanadi.

Moliyaviy lizing nisbatan istiqbolli lizing turi bo'lishiga qaramay, lizing kompaniyalari tomonidan qaytuvchi lizing ham qo'llanilishi mumkin. Chunki bunda korxonalardan zaruriy jihozni, uning ta'minotchisini izlash uchun qo'shimcha xarajat talab etilmaydi. Shuningdek, qaytuvchi lizing operatsiyasi natijasida korxonalarda bo'sh mablag'lar paydo boladi va ularni rivojlantirish yoki aylanma mablag'larini ko'paytirishga yo'naltirish mumkin bo'ladi.

Yuqori narxga ega bo'lgan yoki murakkab texnologik zanjirga talabni qondirish uchun lizing kompaniyasi mablag'larining yetishmasligi sharoitida va qo'shimcha investorlarni topish zarurati paydo bo'lгanda bo'linuvchi lizing ham samara keltirishi mumkin.

Operativ lizing moliyaviy lizingga nisbatan murakkab mexanizm bo'lib, to'qimachilik jihozlari uchun qo'llash muammoli hisoblanadi. Biroq, qulay sharoitlarda ushbu lizing turidan ham foydalanish mumkin. Masalan, agar lizing kelishuvlari ishtirok-chilarining hamkorligi uzoq muddatga mo'ljallanib kelgusida amaldagi kelishuvlarni imtiyozli asosda davom ettirish ko'zda tutilgan bo'lsa, moliyaviy lizingga qo'shimcha xizmat ko'rinishida operativ lizing maydonga chiqadi.

Qoldiq qiymatli lizing variantidan, ya'ni avval ishlatilgan jihozlarni sotib olish variantidan ham to'qimachilik sanoatida foydalanish mumkin. Bunday lizing Xitoy lizing kompaniyalari tomonidan qo'llaniladi. Ularning fikricha, eng ilg'or korxonalar nuqtai nazaridan ma'naviy jihatdan eskirgan jihoz-

lardan texnologik darajasi past bo'lgan boshqa korxonalarda samarali foydalanish mumkin.

To'qimachilik korxonalarini tomonidan rever lizingdan foydalanishga bo'lgan talab buyurtma bo'yicha ishlab sharoitida ijaraga olingan jihozni ishlab chiqarilayotgan mahsulotning texnologik hussusiyatlariga mos keluvchi boshqa jihozga almashtirish zarurati vujudga kelishi mumkin.

Yangilanuvchi lizing bir turdag'i jihozlarni nisbatan zamona viy jihozlarga tez-tez almashtirib turishni ko'zda tutadi va jihozlarning kamdan kam holatda ma'naviy jihatdan eskirishiga qaramay, foydalanilayotgan jihozlarni tez-tez almashtirish zarurati bo'lgan ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Lizingning bir necha turlaridan foydalanish borasida imkoniyatlar mayjudligiga qaramasdan boshlang'ich bosqichda to'qimachilik jihozlarini yangilashda moliyaviy lizingdan foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa va takliflar. Fikrimizcha, lizingni keng miqyosda rivojlantirish uchun, shuningdek, birinchidan, lizing jihozining tezlashtirilgan amortizatsiyasi me'yoridan mustaqil foydalangan xolda amortizatsiya me'yoridan ikki baravariga ortiq amortizatsiya summasini soliqqa tortiladigan baza dan chiqarishni qonuniylashtirish;

Ikkinchidan, qonunchilik xujjalarda lizing kelishuvlari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar ro'yxatini keltirish lozim. Lizing kelishuvlari bo'yicha xatarni o'z zimmasiga oladigan aniq ishtirokchilarini qonuniy jihatdan belgilash muhim. To'rtinchidan, qonunchilik xujjalarda, xususan, "Lizing to'g'risida"gi Qonunda xalqaro lizingni tashkil kilish va amalga oshirish shartlarini yoritish, bunda xalkaro lizing kelishuvlarining xorijiy ishtirokchilari uchun imtiyoz va kafolatlarni aks ettirish lozim.

Lizingning davlat tomonidan yetarlicha qo'l lab-quvvatlanmasligi takror ishlab chiqarish muam-

mosining keskinlashuviga olib keladi. Ushbu holat joriy ishlab chiqarish va uni kelgusida rivojlantirish uchun resurslar kirimining cheklanganligi oqibati bo'lib, bunga investitsion faollikning davlat tomonidan rag 'batlantirishga e'tibor berilmasligi sabab bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda bu sohada korxonalar soliq va hisob siyosatida ma'lum bir o'zgarishlar ishlab chiqilgan. Xususan, lizing to'lovlar miqdorini mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritish masalasi ijobjiy hal etilgan, bojxona imtiyozlari tasdiqlangan.

Ta'kidlash lozimki, davlatning tartibga soluvchi (yo 'holtiruvchi) roli bir qator asosiy funktsiyalarni amalga oshirishga qaratiladi:

- iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining harakati qoidalarini belgilab beruvchi qonunlarni va huquqiy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va takomilashtirish;

- o'rnatilgan qoidalarga rioya qilinishini nazorat qilish va ushbu qoidalarga muvofiq yuzaga keladigan munosabatlar va ularning ishtirokchilarini noqonuniy chetlanishlar (huquqbazarliklar) dan himoya qilishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

- hududiy va tarmoq darajasida uzoq mudatli dasturlar va tadbirlar ishlab chiqish;

- turli xalqaro dastur va tadbirlarda ishtirok etish;

Xulosa qilish mumkinki, to'qimachilik korxonalarining asosiy fondlarini yangilash va bu orqali korxonalarining ishlab chiqarishini modernizatsiyalashda asosiy moliyalash manbai bu lizingdir. Lizing munosabatlarini rivojlantirishda davlatning qo'llab-quvvatlashiga va yordamiga tayanish tarmoqda lizingni shakllanishi hamda rivojlanishini ta'minlaydi hamda o'tkaziladigan lizing operatsiyalari samardorligini oshiradi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 dekabrdagi "2017 — 2019 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PQ-2687-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 maydag'i "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5989-sonli farmoni
3. Васильев Н.М., Катыркин С.Н., Лепе Л.Н. Лизинг как механизм развития инвестиций и предпринимательства – М.: Торгово-промышленная палата РФ, 1999. – 280 с.
4. Газман В.Д. Финансовый лизинг. – М.: ГУВШЭ, 2005. – 390
5. Газибеков Д.Г., Собиров О.Ш. Лизинг и его развитие в Узбекистане. – Т.: Молия, 2001. – 131 с.
6. Лещенко М.И. Основы лизинга. – М.: Финансы и статистика, 2004. – 327 с.
7. Абдуллаева С.Х. Тўқимачилик саноати корхоналарида иқтисодий барқарорликни таъминлаш масалалари // Иқтисодиёт ва таълим журнали – Тошкент. 2021 йил №1 11-15 бетлар. (08.00.00 №11). <http://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/download/57/53>
8. Абдуллаева С.Х. Тўқимачилик маҳсулотлари бозорларининг халқаро ва худудий конъюнктураси: жорий ҳолат таҳлили // Иқтисодиёт ва таълим журнали – Тошкент. 2021 йил №2 96-100 бетлар. (08.00.00 №11). <http://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/96>
9. Абдуллаев Ф.О. Иқтисодиётни модернизация қилишида лизинг хизматлари ва сервисини ривожлантиришнинг ташкилий-иктисодий омиллари (Хоразм вилояти мисолида). и.ф.н. илм.дараҷ. олиш учун ёзилган диссерпт. автореф. – С.: СамИЭС, 2011. – 26 б.
10. Mustafaev Z.B. Growing trends of leasing in Uzbekistan // Central Asia Finance. -2011.- № 3. -P. 72-73.
11. Чекмарева Е. Рекомендации по проведению лизинговых операций // Хозяйство и право. – Москва, 1994. – № 8. – С.21-25.
12. <https://www.lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
13. <https://uzbekleasing.uz.ru>.